languages can be significantly improved through the introduction of new pedagogical technologies, in particular, information and communication technologies. Thus, almost every discipline should use computer technology to increase the level of student knowledge, speed up and improve the presentation of material, and enhance learning. This will increase the efficiency of both full-time and, in particular, part-time education, where a large amount of material is required to be submitted in the shortest possible time.

**REFERENCES**


1. Z. H. Rasulova, 2021, "Teaching English using interactive methods," Academic Research in Educational Sciences 2(11), 248-250.
2. Z. Rasulova, 2023, "Introducing the capabilities of computer technologies in teaching foreign languages," Journal of Foreign Languages and Linguistics 5 (5).
3. Z. Rasulova, 2023 "The process of studying terminology in English and its application in colloquial speech," Journal of Foreign Languages and Linguistics 5 (5).
4. Professional direction of students in teaching English
5. Z. Rasulova, 2020 "Communication in the activity of a teacher and its psychological system", "Journal of Foreign Languages and Linguistics" 1 (1), 52-55


# XORIJIY TILLARNI O'RGANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI


**Ostonov O'tkir Yangiboyevich,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o'qituvchisi
**Berdiqulova Madina Zokir qizi,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
madinaberdiqulova02@gmail.com



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda chet tilini o'rganishning ahamiyati va uni takomillashtirish chora-tadbirlari keng yoritib berilgan. Shuningdek, hozirda chet tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor, yoshlarga berilayotgan imtiyozlar va bu maqsadda qabul qilingan qaror, qonun va farmonlar keltirilgan.



**Kalit so'zlar:** chet tilini o 'qitish, milliy sertifikat, xalqaro baholash tizimi, Davlat test markazi, Vazirlar Mahkamasining PQ-5117-son qarori.



**Abstract.** In this article, the importance of learning a foreign language today and measures to improve it are widely covered. Also, attention to learning a foreign language, privileges given to young people, and decisions, laws and decrees adopted for this purpose are presented.

**Key words:** foreign language teaching, national certificate, international assessment system, State test center, decision of the Cabinet of Ministers No. PQ-5117.

**Аннотация**. В данной статье широко освещена важность изучения иностранного языка сегодня и меры по его совершенствованию. Также представлено внимание к изучению иностранного языка, льготы, предоставляемые молодежи, и принятые с этой целью решения, законы и постановления.

**Ключевые слова:** обучение иностранному языку, национальный сертификат, международная система оценивания, Государственный тестовый центр, постановление Кабинета Министров № PQ-5117.

Ma'lumki, bugungi kunda xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan talab oshib bormoqda. Albatta, buning natijasida yosh avlodning dunyoning eng yuqori darajali universitetlarida oʻqish uchun imtiyozlar qoʻlga kiritayotganining guvohi boʻlishimiz mumkin. Ta'lim sifatini oshirish, davlatni har tomonlama rivojlantirish maqsadida mamlakatda tajribali va malakali kadrlarni tayyorlash, ularning bilimlarini xorijiy davlatlar mutaxassislari bilan almashish maqsadida chet tillarini oʻqitishga boʻlgan e'tibor kuchaytirilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev farmonlari va Oliy Majlis chiqarayotgan qaror va qonunlari hamda ularni amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan qilinayotgan chora-tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda yurtimizdagi ta'lim sohasini tubdan chet tillarga tatbiq qilish maqsadida taqdim etilayotgan darsliklar oʻquv qoʻllanmalari ham ayni shu maqsadning amaliy isbotidir. Binobarin oʻz on tilisiga qiziqqan va uni puxta oʻrgangan oʻquvchigina boshqa tillarga mehr qoʻyib, uni oʻrgana oladi. Shuningdek, yurtimizda til oʻrganishga boʻlgan e'tibor nuqtai nazaridan ham oladigan boʻlsak, aynan yaqin 5-10 yil davomida misli koʻrinmagan ishlar amalga oshirildi va buni siyosat darajasigacha olib chiqishdi. Oʻz oʻrnida xorijiy tillarni oʻrganishga oid bir qator qaror va farmonlar ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2021-yil 19-maydagi 312-son qaroriga muvofiq: "Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har yili tuman (shahar)dagi maktablarni xorijiy tillarni oʻqitish uchun zarur boʻlgan adabiyotlar, asbob-uskunalar, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash uchun mahalliy budjetlardan 1 mlrd soʻmdan kam boʻlmagan miqdorda ajratiladigan mablagʻlarning hisobi hududiy xalq ta'limi boshqarmalarining Gʻaznachilikdagi alohida ochilgan maxsus hisobvaraqlarida yuritilishi hamda ushbu mablagʻlar Agentlik bilan kelishilgan manzilli dasturlar asosida sarflanishi belgilab qoʻyilsin".

Qonun bajarilishini ta’minlash maqsadida vazirlik tomonidan tuman, shahar va viloyatlar hokimliklariga qator vazifalar belgilab berildi va uning nazorati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalariga hujjat topshirayotgan o‘quvchi yoshlarga ham keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ular “Chet tilini bilish darajasini aniqlash” test sinovlarida ishtirok etib, o‘z bilim darajalari va saviyasidan kelib chiqqan holda test sinovlaridan ozod qilinish imkoniyatlariga ega:

Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi 395-son qarori bilan belgilangan “Davlat test markazi tomonidan beriladigan chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi sertifikat (keyingi o‘rinlarda — milliy sertifikat) yoki xalqaro tan olingan sertifikatning tegishli darajalariga ega bo‘lgan abituriyentlarga o‘qishga kirish sinovlarida berilgan imtiyozlar saqlab qolinadi;

chet tili fanidan kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan amalga oshiriladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2020- yil 7- avgustda ma’qullangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 10- dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1875-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19- maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5117-son qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 29-iyundagi 61-sonli buyrug‘iga muvofiq yangi pedagogik texnologiyalar asosida ingliz tilini o‘qitishni tashkil etish topshiriq berilgan.

Ushbu buyruq ijrosini ta`minlash maqsadida, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi va Samarqand davlat chet tillar instituti o`rtasida tegishli ravishda shartnoma imzolandi. 2021-yilning 8- oktabr kunidan boshlab, Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili o‘qitish metodikasi o‘qituvchilari Shomuxammadov Xolidin hamda Yoqubov Anvar ishtirokida Ingliz tili bo‘yicha o‘qitishning ilk darslari bo‘lib o‘tdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yildan-yilga yosh avlodlar uchun shunchalik keng imkoniyatlar yaratib berilyaptiki, bizning yagona maqsadimiz ulardan samarali foydalangan holda, mamlakatimiz, jamiyatimiz, xalqimiz taraqqiyoti, uning kelajagi uchun yetuk kadr va mutaxassis bo‘lib yetishishimiz va davlatimizning bizga bo‘lgan ishonchini oqlashimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toirova Mehribon Odiljonovna, “Xorijiy tillarni oʻrganishda zamonaviy texnologiyalarning oʻrni va ahamiyati”, Innovation: The journal of social sciences and researches.
2. J.Jalolov, “Chet tili oʻqitish metodikasi”, Toshkent-2012
3. Odil oʻgʻli T.I. (2021). Metodology of teaching English, World Bulletin of social sciences.
4. https://lex.uz/docs/-5831978
5. https://samstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/6823-xorijiy-tillarni-o-rganish-bo-yicha-o-quv-tashkil-etildi-2
6. https://testtoday.uz/blog/abituriyentlarga-imtiyozlar

## LINGUISTICS IS THE SCIENCE OF LANGUAGE

**Turdiyeva N.A**
Teacher of samarkand institute
of economic and service
**Turdiyeva N.A**
Student of samarkand institute
of economic and service
**Baxtiyorova D.B**

**Annotation:** Linguistics or Linguistics is a science that studies languages. There are practical and theoretical types of linguistics, and theoretical linguistics studies the structure and its meaning of language. Grammar includes the disciplines of morphology, syntax, and phonology. Applied linguistics mainly deals with the practical application of theoretical knowledge learned in linguistics. Applied linguistics includes learning and teaching foreign languages.

**Key words**: Linguistics, language semasiology, grammar, Turkic studies, foreign language, logical phonetics.

**Аннотация:** Лингвистика или Языкознание – наука, изучающая языки. Различают практический и теоретический виды языкознания, а теоретическое языкознание изучает структуру и ее значение языка. Грамматика включает дисциплины морфологии, синтаксиса и фонологии. Прикладная лингвистика в основном занимается практическим применением теоретических знаний, полученных в лингвистике. Прикладная лингвистика включает в себя изучение и преподавание иностранных языков.

**Ключевые слова:** Языкознание, языковая семасиология, грамматика, тюркология, иностранный язык, логическая фонетика.